

**ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI
MOLIYA-IQTISOD FAKULTETI
“MOLIYA” KAFEDRASI**

**“XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI SAMARALI
TASHKIL QILISH MASALALARI”**

5230600 -“Moliya”- ta'lim yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Moliya” kafedrası mudiri

_____ i.f.n., dots. O.Komolov

« ____ » _____ 2017 y.

Ilmiy rahbar: _____ dots. B. Tog'ayev

TOSHKENT - 2017

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
1 BOB. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	7
1.1. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	7
1.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari	16
1 bob bo'yicha xulosalar.....	23
II BOB. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING HOZIRGI HOLATI	25
2.1. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning hozirgi holati	25
2.2. Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati ("Navoiy" erkin iqtisodiy zonasi misolida).....	35
2 bob bo'yicha xulosalar.....	40
3 BOB. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI SAMARALI TASHKIL QILISH MASALALARI.....	42
3.1. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash masalalari	42
3.2. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	49
3 bob bo'yicha xulosalar.....	57
XULOSA	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	62

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik yangilashda milliy iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish faoliyatini amalga oshirishda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirish investitsion siyosatning samaradorligi bilan bog'liq. Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotimizga jalb qilish va ularni hisoblashga doir halqaro iqtisodiy tashkilotlar yondashuvlarni tahlil qilish va mamlakatimizda jahon tajribasi asosida investitsiya siyosatini rivojlantirish hozirda dolzarb ahamiyat aks etadi. Har qanday mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri investitsiyalar darajasi hisoblanadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida tashqi qarzlar sohasida qisqa muddatli spekulativ kreditlardan voz kechish siyosati izchil amalga oshirilishi, tashqi investitsiyalarini uzoq muddatlarga, imtiyozli foiz stavkalari bo'yicha jalb etilganligi muhim ahamiyat kasb etdi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur vazifalar muhim ahamiyat kasb etishini quyidagicha ta'kidlagan edilar: "Biz oddiy bir haqiqatni doimo esda tutishimiz darkor. Ya'ni sarmoyasiz taraqqiyot yo'q, ishlab chiqarishni va umuman mamlakatimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni investitsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi" deb ta'kidlaganlar.¹

O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borayotgani, tarkibiy o'zgartirishlar, tarmoqlarni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash chora-tadbirlari va investitsiya loyihalari amalga oshirilishi, xususan, 2016 yilda iqtisodiyotga 16,6 milliard AQSH dollaridan yoki 2015 yilga nisbatan 9,6 foizga ko'p investitsiya qilinganligi, o'zlashtirilgan chet el investitsiya va kreditlar hajmi 11,3 foizga o'sganligi, e'tiborli jihati shundaki,

¹ I.A.Karimov. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlantirish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo'li bo'ladi./ 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// T.: "O'zbekiston", 2014-64-b

yakunlangan yilda Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,2 milliard dollarlik 164 yirik ishlab chiqarish ob'ekti ishga tushirilganligini, bundan tashqari, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida 2016 yilda 28 mingdan ko'p loyiha amalga oshirilganligini keltirib o'tish o'rinlidir.² Shu bilan birga, "Mahalliy hokimlarning aybi bilan mamlakatimiz hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish o'ta qoniqarsiz axvolda qolmoqda. Birgina misol keltiraman, Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida atigi 18 ta loyihani amalga oshirishga 55 million dollar yoki har bir loyihaga o'rtacha 3 million dollar dan xorijiy investitsiya jalb etilgan. Ana shu hududlarning sanoati va infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha mamlakat Prezidenti tomonidan tasdiqlangan maxsus dasturlar amalga oshirilayotgan bir sharoitda bu albatta etarli emas³"ligi Prezidentimiz SH.Mirziyoev tomonidan takidlab o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli farmoni bilan «2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ni tasdiqlandi.⁴ Mazkur Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlariga asoslanib ishlab chiqildi.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda uzviylikda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutilgan. Xususan, Harakatlar strategiyada iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat

²O'zbekiston Respublikasini 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot vazirligi sayti malumoti [// www.mineconomy.uz/uz/node/1477-](http://www.mineconomy.uz/uz/node/1477-)

³ Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, kat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017. - 28b.

⁴ «2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»// www.strategy.regulation.gov.uz

ishtirokini kamaytirish bo'yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag'batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi ustuvor yo'nalishari belgilab berilganligi e'tiborga molikdir. Harakatlar strategiyasida alohida e'tibor investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish amalga oshirilishi keltirib o'tilgan⁵. Yuqorida keltirib o'tilgan jihatlar, bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish mavzuning dolzarbligi ko'rsatib beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirishning turli jihatlarini qator chet ellik iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlanmalarida o'z aksini topgan. Xususan, xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari S. Kindelberger, E. Penrouz, A. Mlumerr, M. Bay, G. Xafbauer, R. Kouz, R. Vernon, M. Kasson, YA. Yuxanson, A. Rugman, Dj. Dannig kabi xorijiy etakchi olimlar⁶ tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish, mamlakatda qulay investitsiya muhitini vujudga keltirish, iqtisodiyotiy barqarorlik xorijiy investitsiyalarning ta'siri va ahamiyati, investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlari mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida, Prezident Shavkat Mirziyoevning ma'ruzalarida batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va ularni iqtisodiyotiga jalb etishni takomillashtirish masalalari respublikamiz olimlari A. O'lmasov,

⁵ «2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»// www.strategy.regulation.gov.uz

⁶ Vernon R. International trade and international investment in the product cycle // The quarterly journal of economics. – Harvard, 1966. – Volume 83. No.1. – pp. 190-207;

A.Vaxabov, D.G'ozibekov, Sh.Xajibakiev., N.Muminov, X.Amonov, N.Rasulov, N.Qo'zieva va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida⁷ o'rganilgan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tizimli yaxlitlikda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va huquqiy-institutsional jihatlarini yoritish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etishning shakl, turlari va tarkibini o'rganish hamda dinamikasini tahlil qilish;
- xorijiy investorlar uchun maksimal, qulay darajadagi investitsiya muhitini yaratish, kafolat va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash yo'llarini o'rganish va aniq erkin iqtisodiy hudud misolida tadqiq etish orqali iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni takomillashtirish yuzasidan aniq taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish;
- Mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ustuvor yo'nalishlarini ko'rib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ob'ekti va predmeti. Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalar kiritilgan soha va tarmoqlar tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni, strategiyasi va tajribasi tadqiqot predmetidir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi: kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

⁷ O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T.: SHARQ, 2006. -445 b.; Vaxabov A.B., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma.- T.: "Moлия", 2010. - 328 b.; G'ozibekov D.F. Investitsiyalarni mo'llashtirish masalalari.-T.: "MOЛИЯ",2003. - 331 b.; Amonov X.Э. Привлечение иностранных инвестиций в условиях приватизации: Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. - T.:Банковско-Финансовой Академии, 2002. -20 с.; Rasulov N.N. Стимулирование привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана. - T.: Фан, 2003. - 170 с.; Кузиева Н. Хоризий инвестициялар иштирокидаги корхоналар молия ва кредит механизмини такомиллаштириш йўналишлари. Монография. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2006. -296 б.

1 BOB. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarini jalb qilishning iqtisodiy mazmuni va mohiyati

Bizga ma'lumki, bir davlatdan boshqa davlatga daromad olish uchun yo'naltirilgan har qanday shakldagi mulkni to'la qonli xorijiy investitsiya deyishimiz mumkin.

Xorijiy investitsiyalar - bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutloq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarish zamonaviy, raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boradi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining tashkil etilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning hal bo'lishiga olib keladi.

«Xorijiy investitsiyalari» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining 1998- yil 30 aprelda qabul qilingan Qonunining 3- moddasida «Chet ellik investorlar asosan daromad (foйда) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir huquqlar, shuningdek xorijiy investitsiyalaridan olingan har qanday daromad O'zbekiston respublikasi hududida xorijiy investitsiyalari deb e'tirof etiladi».⁸ Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQShda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2-nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar – bu bir mamlakat hududidan ikkinchi mamlakat hududiga kiritilgan, eksport qilingan investitsiyalar»⁹.

⁸ O'zbekistonning yangi qonunlari. 19-son,-T.: Adolat, 1998.532-bet.

⁹ Samarxujayev B.B. Investitsii v Respublike Uzbekistan. Tashkent, 2003g. S.16. Dictionary of Foreign Trade. by F.Henus Sec/ Ed. N4.,1947, P.387.

Bizningcha xorijiy investitsiyalari – chet mamlakatlarining milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalardan farqli holda tashqi moliyalashtirish manbaiga kiradi.


Xorijiy investitsiyalar qo'shma korxonalar tashkil etish, xorijiy investorlarga to'liq tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, xususiylashtirishda qatnashish, xorijiy sheriklar bilan bank tuzish, qimmatbaxo qog'ozlarni sotib olishi, er va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqiga ega bo'lishda, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borishda juda katta va muhim ahamiyatga egadir.

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi va investitsiya to'g'risida mamlakatimizda qabul qilingan qonunlarning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda 3 ta turini ajratish mumkin (1-rasm).

1) Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, depozit sertifikatlar, aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

2) Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

3) Aqliy (intellektual) investitsiyalar mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar, aqliy mehnatga oid shakldagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat. Ularga: mualliflik huquqlari, "nou-xau", kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.




1-rasm. Investitsiya turlari¹⁰

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qo'shadi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

- Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.
- Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.
- Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

^{10 10} Ya.K.Karrieva, I.U.Nematov, Xorijiy investitsiyalar. Toshkent-2010, 18-bet



2-rasm. Xorijiy investitsiyalarni tasniflanish belgilari¹¹

¹¹ Ya.K.Karrieva, I.U.Nematov, G.A.Abdilakimov, A.A.Masharipov Xorijiy investitsiyalar, Toshkent-2010, 22-bet

Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro investitsiyalar ko'rinishiga ham ega bo'ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'rtasida xarakatda bo'lgan investitsiyalardir. Hozirgi vaqtda xalqaro investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 30%dan oshadi. Bu ko'rsatkich jahon savdosining o'sish sur'atlaridan deyarli 5 marotaba ortiqdir. Xalqaro investitsiyalar o'zida moddiy boylik barpo etish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish, pul va tovar shakllarida jamg'arilgan zahiralarni mujassamlashtiradi.


Ob'ektlarga investitsiya mablag'larini yo'naltirish bo'yicha investitsiyalar real va moliyaviy investitsiyalarga bo'linadi:

- Real investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.
- Moliyaviy investitsiyalar deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun sarflangan qo'yilmalarga aytiladi.

Investitsiyalarning hududlararo va tarmoqlararo tarkibi esa ularning nisbiy jihatdan hududlar va tarmoqlar bo'yicha taqsimotini bildiradi.

Mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi.

- ✓ Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati ob'ektlariga kuyilishini anglatadi.
- ✓ Davlat investitsiyalari - bu davlat tomonidan milliy daromadning davlat budjetining mablag'lari ko'rinishida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi uchun sarflayotgan mablag'laridir.
- ✓ Xorijiy investitsiyalar ham davlat yoki xususiy investitsiyalar shaklida bo'lishi mumkin. Birinchi shaklda davlat investitsiyalari ishtirok etib, bunda bir davlat boshqa davlatga kreditlar yoki boshqacha shakldagi qarzlar berishi mumkin. Bunday munosabatlarga xalqaro huquq normalari qo'llaniladi. Ikkinchi shaklda esa, bir mamlakat xususiy firmalari, kompaniyalari yoki fuqarolari boshqa mamlakatning tegishli sub'ektlariga beradigan investitsiyalar tushuniladi.



3- rasm. Investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar turlari¹²

Investitsiyalash davriga qarab xorijiy investitsiyalar qisqa va uzoq muddatli investitsiyalarga bo`linadi (3-rasm).

Hududiy joylashtirilish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo`linadi.

Hozirgi davrda bir qator davlatlarda moddiy ishlab chiqarish jaryonidagi investitsiyalashdan tashqari ijimoiy-madaniy sohalar uchun, fan tarmoqlari uchun, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport sohalari uchun, informatika sohasi, tabiatni muhofaza qilish uchun investitsiya mablag'lari ajratilmoqda. Bu investitsiyalar xorijiy adabiyotlarda «inson investitsiyasi», «inson kapitaliga investitsiya qilish» deb atalmoqda.


Xorijiy investitsiyalar maqsadiga ko'ra: bevosita va portfel investitsiyalarga bo`linadi.(5-rasm)

Bevosita investitsiyalar – bu kapitalni to`g`ridan-to`g`ri eksporti bo`lib, investitsiya kirituvchiga shu korxona ustidan nazorat qilish huquqini beradi. Bunda korxona asosiy kompaniyaning xorijdagi shaxobchasiga aylanadi. Bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) asosan xususiy tadbirkorlik kapitali shaklida bo`ladi.

Xalqaro statistikada investitsiyalarni BXI lar turiga kiritish bo'yicha har xil yondashuvlar mavjud. Xorijiy investorlar tomonidan nazorat qilish huquqini

¹² H.H.Imomov, Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish (Toshkent-2010, 22-bet) ma'lumotlari asosida talaba tomonidan tuzildi

belgilovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalining hissasi ko'rsatkichidan foydalaniladi (5-rasm).



4-rasm. Bir qator mamlakatlarda aksionerlik kapitalida xorijiy investorning nazorat qilish huquqini beruvchi hissasi¹³

Bu ko'rsatkich AQShda 10%, Fransiya va Buyuk Britaniyada 20% ga yaqin, Germaniyada 25%dan 50% gacha, O'zbekistonda esa 49% darajasida belgilangan. Shuningdek, shu korxonaning boshqaruvida bevosita amalga oshirilayotgan investitsiyalarning uzoq muddatli ekanligi ham uning muhim belgilaridan biridir.


BXI borasidagi yana bir yondashuv bu turdagi investitsiyalarni faqat mulkchilik ko'lam bilan, ya'ni aksionerlik kapitalidagi ulushi bilan bog'liq, deb ko'rsatadi. Unga muvofiq BXIlarni:

- a) xorijda aksiyalarni sotib olish orqali;
- b) foydani qayta investitsiyalash yordamida;
- v) firma ichki qarzlari va qarzдорliklari orqali amalga oshirish mumkin.

¹³ Ya.K.Karrieva, I.U.Nematov, Xorijiy investitsiyalar, Toshkent-2010, 25-bet.

Ko'pchilik iqtisodchilar bu shakllar etarli emas, deb hisoblashadi va asosli ravishda turli xil noaksioner shakllar orqali bu ro'yxatni davom ettirishadi (boshqaruv kelishuvlari, franchayzing, litsenzion kelishuvlar va boshqalar).

BXIlarning shakl va usullariga bog'liq tushunchalar bilan bog'liq turli xil yondashuvlarning ko'payishi qator muammolarni keltirib chiqardi.



5-rasm. Xorijiy investitsiyalar maqsadiga ko'ra turlari¹⁴

Bevosita investitsiyalar asosan ikki guruhga ajratiladi:

1. Transkontinental kapital qo'yilmalar.
2. Transmilliy qo'yilmalar.

Transkontinental kapital qo'yilmalar - investitsiya kiritish uchun qulay bozor sharoiti bo'lgan boshqa bir davlat yoki qit'aga investitsiya eksportini amalga oshirishdir. Asosiy maqsad – bozorni egallash va shu kontinentda yangi ishlab chiqarishni tashkil etish. Transmilliy kapital qo'yilmalari esa asosan qo'shni davlatlarga amalga oshiriladi.

Bevosita investitsiyalar ikki maqsadda yo'naltiriladi:

- yangi kompaniya tashkil etish;
- bankrot bo'lgan kompaniyalarni xarid qilish.

¹⁴ U.To'raev «Xorijiy investitsiyalar» fanidan ma'ruzalar matni asosida talaba tomonidan tuzildi.

2)Portfel investitsiyalar - kapitalni daromad olish maqsadida korxonalarning aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi. Bunday investitsiyalar korxonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati ustidan nazorat o'rnatish huquqini bermaydi. Xorijiy portfel investitsiyalar barcha xalqaro operatsiyalarni amalga oshirishda firmalar uchun muhim ahamiyatga ega. By turdagi investitsiyalarga asosan moliyaviy muammolarni yyechish uchun murojaat qilinadi. Korporatsiyalarning moliyaviy bo'limlari mablag'larning bir mamlakatdan boshqa mamlakatga qisqa muddatli investitsiyalardan yuqori foyda olish uchun o'tkazadilar.

Portfel investitsiyalar quyidagi ko'rinishda bo'lishi mumkin:

-aksioner qimmatbaho qog'ozlari - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqga egaligini tasdiqlaydi;

-zayom qimmatbaho qog'ozlar - bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

Moliyaviy derivatlar– bozor narxiga ega bo'lgan pulli dastak bo'lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaxo qog'ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga optsionlar, fyucherslar, warrantlar, svoplar kiradi.

Nota (qarz majburiyati) - qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – evronotalardir.

Portfel investitsiyasining bevosita investitsiyalardan afzallik tomoni shundaki, ular tugatilish vaqtida qimmatbaho qog'ozlar tezda naqd valyutaga almashtirib olinishi mumkin. Portfel investitsiyalarning amalga oshirilishining asosiy sababi – tavakkalchilik darajasini hisobga olgan holda xorijiy investor o'z mablag'larini xorijda maksimal foyda keltiruvchi qimmatbaxo qog'ozlarga joylashtirishi mumkin.

Quyida portfel va bevosita investitsiyalar o'rtasidagi farq jadval ko'rinishida (1-jadval) yaqqol tasvirlab berilgan

1-jadval

Bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlar¹⁵

Belgilar	Bevosita investitsiyalar	Portfel investitsiyalar
Kapital chiqarishdan asosiy maqsad	Xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib borish	Xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XVJ nizomiga binoan kompaniya aksioner kapitalining 25%dan kam bo'lmasligi kerak)	Xorijiy firma aksioner kapitalining 25%dan (AKSh, Yaponiya, Germaniyada 10%dan) kamini sotib olishi
Daromad shakllari	Tadbirkorlik faoliyati foydasi, dividendlar	Dividendlar, foizlar

1-jadval ma'lumotlaridan bevosita va portfel investitsiyalar o'rtasidagi farqlarni ko'rishimiz mumkin. Bunda kapital chiqarishdan asosiy maqsadi bo'yicha bevosita xorijiy investitsiyalar xorijiy firma ustidan nazorat o'rnatishga, portfel investitsiyada esa yuqori foyda olishga qaratilgan. Maqsadga erishish yo'llari ham turlicha bevosita investitsiyalarda xorijda ishlab chiqarishni tashkil etish va olib boorish bo'lsa, portfel investitsiyalarda xorijiy qimmatbaho qog'ozlarini sotib olish hisoblanadi.

1.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asoslari

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotini barqarorlashtirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish, milliy iqtisodiyotimizni jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlash dolzarb masalalardan sanaladi.

¹⁵U.To'raev «Xorijiy investitsiyalar» fanidan ma'ruzalar matni ,Toshkent-2010, 13-bet

Istiqlol yillarida respublikamiz hukumati tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, aholini ish bilan ta'minlash va ijtimoiy jihatdan himoyalashga yo'naltirilgan alohida amallar bilan bir qatorda xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida ham bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotimizga jalb etish va ular yordamida tashkil etiladigan korxonalarning faoliyatini yo'lga qo'yish yuqorida aytib o'tilgan dolzarb vazifalarning yechimini izlash yo'lida qilinadigan muhim ishlar jumlasiga kiradi.

Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishni, milliy iqtisodiyotimizni jaxon xo'jaligi tizimiga integratsiyalanashuvini ta'minlashga, tadbirkorlik subyektlari hamda investorlarga zarur kafolatlarni yaratib berishga xizmat qiluvchi muhim loyihalarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, zarur normativ-huquqiy bazaning yaratilishi kutilgan natijalarni bermoqda.

Bugungi kunga kelib respublikamizda xorijiy sarmoyadorlarning mamlakatimiz hududlarida faoliyat yuritishiga doir zarur qonunchilik bazasi yaratilgan. Jumladan, 1998 yilda O'zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida»gi va «Xorijiy investorlarning xuquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risida»gi Qonunlari qabul qilingan bo'lib, ular respublikamizda xorijiy investorlar va ular ishtirokidagi korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy-me'yoriy hujjatlarning qabul qilinishi fikrimizning dalolatidir.

Xorijiy investorlar uchun O'zbekistonda turli shakllarda investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yaratilgan. O'zbekiston Respublikasining «Xorijiy investitsiyalar to'g'risida»gi Qonunining 6-moddasiga asosan xorijiy investorlar O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tashkil etishlari hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilgan barcha huquqlar, kafolatlar va imtiyozlardan foydalanishlari mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy investitsiyalar

ishtirokidagi korxonalar deganda aksiyalarining (ulushlari, paylarining) yoki ustav jamg'armasining kamida o'ttiz foizini xorijiy investitsiyalar tashkil etadigan korxonalar tushuniladi. Ular O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan shakllantirilgan qonun hujjatlariga zid kelmaydigan har qanday tashkiliy-huquqiy shakllarda faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona qatnashchilaridan biri chet ellik investor bo'lishi hamda korxona ustav kapitali miqdori kamida 150 000 AQSH dollari ekvivalentida bo'lishi talab etiladi. Ayrim hollarda ustav kapitalning talab qilingan minimal darajasi miqdori pasaytirilgan bo'lib (jumladan, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun ushbu talab 75000 AQSH dollari miqdorida o'rnatilgan), ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mintaqalarga kapitalni jalb etishni rag'batlantirish maqsadida qo'llaniladi.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona uni ta'sis etish yo'li bilan yoki mavjud (faoliyat yuritib turgan) korxonada ishtirok etish ulushini (payini, aksiyalarini) yoxud bunday korxonani butunlay, shu jumladan xususiylashtirish jarayonida chet ellik investor tomonidan sotib olinishi natijasida tashkil etilishi mumkin. Tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy investorlar O'zbekiston bozoriga kirib kelishida ishlab turgan korxonani sotib olish amaliyoti ko'proq xususiylashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, ayrim hollarda esa bozorda yuqori mavqega (shu jumladan, telekommunikatsiya, ximiya sanoati va qurilish materiallari kabi sohalarda) ega bo'lgan korxonalarga investitsiya qilish bilan bog'liq. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarni davlat ro'yxatiga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida Davlat O'zbekiston Respublikasi hududida chet ellik investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishlari chog'ida ularning barcha huquqlari kafolatlanishi va himoya qilinishi qayd etib o'tilgan. Chet ellik investorlar va chet el investitsiyalari uchun adolatli va teng huquqli rejim, ularning to'liq va doimiy himoyasi hamda xavfsizligi ta'minlanishi ko'rsatiladi. Bunday rejim O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiyalarning tegishli

rejimiga qaraganda noqulayroq bo'lishi mumkin emas. Mazkur tartib alohida e'tiborga loyiq bo'lib, xorijiy investorlar faoliyati uchun qulay sharoit yaratilganligini ko'rsatadi. Ma'lumki, chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga alohida soliq, bojxona va boshqa imtiyozlar berilgan bo'lib, ular ayni paytda barcha bozor ishtirokchilariga berilgan turli qo'shimcha imtiyozlardan ham foydalanish imkoniyatiga ega.

Chet ellik investorlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan kafolatlangan huquqlari va manfaatlari buzilganda ularni tiklash O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasida chet el investorlari faoliyatini himoya qilishning huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida 1998 yil 30 apreldagi «Xorijiy investorlarning huquqlari kafolatlari va himoyalash choralari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida qabul qilindi. Xorijiy investorlar huquqlarini kafolatlash tizimining ishchan mexanizmini yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2003 yil 2 maydagi "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 58-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bu borada mas'ul davlat organi deb belgilandi va tegishli ravishda unga qo'shimcha vakolatlar berildi. Xususan, boshqa vakolatlar bilan bir qatorda Adliya vazirligi chet el investorlari va bunday investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga nisbatan nazorat qilish organlari hamda mahalliy xokimiyat va boshqaruv idoralarining investorlarning huquqlarini buzuvchi qarorlarini to'xtatib qo'shish hamda tegishli davlat va boshqaruv organlariga bunday qarorlarni bekor qilish bo'yicha takliflar kiritish huquqi berilgan. Bizning fikrimizcha, bunday yondoshuv chet el investorlari faoliyati bilan bog'liq munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlashga va investorlar huquqlarini izchil himoya qilishga qaratilgan muhim omil hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo'llanilayotgan yana bir rag'batlantiruvchi chora shundan iboratki, agar mamlakatdagi keyingi qonun hujjatlari investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirsa, unda chet ellik

investorlarga nisbatan investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab ma'lum bir muddatga qo'llash kafolatlanadi. Ushbu chora O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham o'z aksini topgan bo'lib, xorijiy investorlarga investitsiyalash sanasida amal qilgan qonun hujjatlari investitsiyalash paytidan boshlab o'n yil mobaynida qo'llash kafolati beriladi. Chet ellik investor o'z xohishiga ko'ra yangi qonun hujjatlarining investitsiyalash shart-sharoitlarini yaxshilaydigan qoidalarini qo'llash huquqiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012 yil 10 aprel kuni "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4434-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga ko'ra qiymati 50 million AQSH dollaridan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish byudjet mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdagi imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko'proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 foizdan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi¹⁶. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

¹⁶ Mustafakulov Sh., Murodullaev N. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiyalashda keng ko'lamli investitsiya siyosati // Birja-ekspert. №1(73)-2014.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar o'z haq-huquqlarini himoyalashiga xizmat qiluvchi mexanizmdan oqilona va o'rinli foydalanishmoqda. Bu esa, o'z navbatida, chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun mamlakatimizda qulay shart-sharoitlar yaratilganidan, davlatimiz tomonidan bu sohaga jiddiy e'tibor berilayotganidan dalolatdir.

Bozor iqtisodiyoti islohotlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash hamda hajmi tobora ortib borayotgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamizda investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida har yili investitsion dastur qabul qilinadi. Jumladan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, ustuvor tarmoqlarga investitsiyalar kiritish, korxonalarning investitsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiya qilish va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni keng jalb qilish, ulardan samarali foydalanish, yangi ish o'rinlari yaratish va shular asosida respublikamiz iqtisodiyotini barqaror va bir maromda rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi Investitsiya dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti tomonidan 2014 yil 7 aprelda “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 15 aprelda “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Farmonida ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish, maksimal darajada qulay investitsiya iqlimini yaratish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oydinligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik faoliyatini yuritish sharoitlarini tubdan yaxshilash, yangi ish joylarini barpo etish va iqtisodiyotning xususiy sektorida aholi bandligini oshirish choralari ko‘zda tutilgan.

Ya’ni tadbirkorlik subyektlari va investorlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, davlat va mahalliy boshqaruv organlarining tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi samarani ko‘paytirish, oshkoraligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va muvofiqlashtirishning institutsional tizimini takomillashtirishda ko‘zda tutilgan. Shuningdek, korporativ boshqaruvni, subyektlarni kreditlash mexanizmlarini rivojlantirish, ularga ko‘rsatiladigan xizmatlar doirasini kengaytirish, soliq ma’murchiligini soddalashtirish, sifatni boshqarish standartlarini joriy etish va xususiy mulkdorlar rolini oshirish shular jumlasidandir.

Farmonda qayd qilingan vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bir oy muddatda o‘zlarining rasmiy veb-saytlarida tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlar masalalarini tartibga soluvchi axborotlarni joylashtirib, keyinchalik ularni doimiy ravishda yangilab borishni ta’minlashlarining o‘ziga xos ahamiyati e’tirof etildi.

Bundan tashqari, Farmonga ko‘ra, joriy yilning 1 iyunidan davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik subyektlari bilan o‘zaro munosabatlarini

tartibga soladigan me'yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlar talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik subyektlariga javobgarlik choralari qo'llash taqiqlanadi. Hujjatda joriy yilning 1 iyulidan boshlab qurilish materiallari sanoati, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalar xodimlarining yillik o'rtacha soni ikki barobarga oshirilib, ikki yuz nafargacha bo'lishi ham belgilangan.

Umuman, Farmonida nazarda tutilgan qo'shimcha dasturiy choralarning amaliyoti, jumladan, yangi imtiyozlar va preferensiyalarning keng doirasi, har xil litsenziya va ruxsat beruvchi tartib-taomillarning muddatlarini tubdan qisqartirish, soddalashtirish va arzonlashtirish kabilar xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, biznesni yuritish, iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashda muhim bosqich bo'lib xizmat qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 31 mart kuni "Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida" farmon imzoladi.

1 bob bo'yicha xulosalar

Davlatimiz mustaqillikka erishgan yillardan boshlab, bozor iqtisodiyotiga o'tishning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lidan bormoqda. Bu yo'lda investitsiya siyosatining ahamiyati juda katta. Chunki, investitsiyalar iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar, texnik va texnologik yangilanishlar, korxonalarni qayta ta'mirlash ishlarini amalga oshirishni rag'batlantiradi, mamlakat eksport va import salohiyatini oshirishga imkon yaratadi. Shu jihatdan, O'zbekiston Davlati o'z tuzilmaviy investitsiya siyosatini olib bormoqda.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiya uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan, huquqiy baza, investitsion muhit mamlakatimizda mavjud. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi barcha iqtisodiy jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatgani kabi xalqaro investitsiya oqimlarining hajmi, yo'nalishlari, geografik taqsimoti va qabul qiluvchi hamda donorlari strukturasi o'zgarishiga

ham olib keldi. Ammo O'zbekistonning oqilona investitsion siyosati bu kabi jiddiy o'zgarishlarga uchramadi va progressiv tendensiya davom etmoqda. Shunday bo'lsa ham, ushbu boradagi hamkor davlatlardagi o'zgarishlarni inobatga olib siyosat yuritish kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotning garovi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarning sifat tavsifi va qiymat almashinuvlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, aynan investitsiyalar mamlakatimiz iqtisodiy va texnologik yangilanishi jarayonining harakatlantiruvchi omillaridan biri sanaladi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda qulay va jozibador investitsiya muhiti qaror topdi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishning qonuniy asosga ega bo'lgan keng ko'lamdagi yaxlit imtiyozlar, afzalliklar va kafolatlar tizimi yaratildi. Shu o'rinda, ta'kidlash lozimki, investitsiyalarning ustuvor yo'nalishlarini aniq belgilash, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilish, investitsiya faoliyatini oqilona tartibga solish asosida moliyaviy manbalarni mavjud shart-sharoitni hisobga olgan holda jalb qilish har qanday mamlakat iqtisodiyotining istiqbolini belgilaydi.

Mamlakatimizning barqaror iqtisodiy o'sishini, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini mustahkamlash va kengaytirishni, milliy iqtisodiyotimizni jaxon xo'jaligi tizimiga integratsiyalanashuvini ta'minlashga, tadbirkorlik sub'ektlari hamda investorlarga zarur kafolatlarni yaratib berishga xizmat qiluvchi muhim loyihalarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, zarur normativ-huquqiy bazaning yaratilishi kutilgan natijalarni bermoqda.

2 BOB. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING HOZIRGI HOLATI

2.1. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning hozirgi holati

Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan-yilga o'sib borishida yurtimizdagi mavjud investitsion sharoit va qulay investitsiya muhiti alohida ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash joiz.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investitsiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. Investitsiya muhiti – bu mamlakatdagi investitsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui demakdir. Investitsiya muhiti eng avvalo quyidagi iqtisodiy omillar orqali belgilanadi: tabiiy shart-sharoitlar, shu jumladan foydali qazilmalar zahiralar, ishchi kuchi malakasi va o'rtacha ish haqi darajasi, iqtisodiy kon'yunktura holati, ichki bozor sig'imi hamda tovarlarni tashqi bozorda sotish imkoniyatlari, kredit tizimi holati, soliqqa tortish darajasi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanganligi, xorijiy kapitalga nisbatan davlat siyosati, unga nisbatan imtiyozli shart-sharoitlarning belgilanganligi va h.k. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon qulay investitsiya muhitini yaratish davlatimiz iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Xorijiy investor O'zbekiston Respublikasida quyidagi yo'llar bilan investitsion faoliyatni amalga oshirishi mumkin:

- O'zbekiston rezidentlari - huquqiy va jismoniy shaxslar bilan birgalikda tashkil etilgan kompaniyalar, banklar, trestlar, kartellar, birlashmalar va boshqa korxonalardagi ulushi bilan ishtirok etish yo'li bilan;

- 100%li chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tuzish yo'li bilan;

- portfel investitsiyalari - O'zbekiston kompaniyalari tomonidan chiqarilgan aktsiyalar, obligatsiyalar, va boshqa qimmatbaho qog'ozlar sertifikatlarini harid qilish yo'li bilan;

- er osti va er usti foydali qazilmalaridan foydalanishga tegishli (kontsessiya) huquqlarini o'z ichiga oluvchi er va ko'chmas mulkni to'la yoki qisman sotib olish yo'li bilan.

O'zbekiston Respublikasida investitsiyalarni, shu jumladan xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda jalb etish imkonini beradigan mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslarning yaratilganligini e'tirof etish joiz. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi (yangi tahrirda) qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 iyuldagi PQ.-927-sonli "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va 2012 yil 10 apreldagi PF-4434-sonli "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi muhim me'yoriy-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali respublikamizda o'zlashtirilgan investitsiyalar va xorijiy investitsiyalarning dinamikasiga baho beramiz.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyodiga jalb etilgan investitsiyalar va uning tarkibidagi xorijiy investitsiyalar¹⁷, mlrd AQSH dollari

Ko'rsatkichlar	Yillar					2016 yilda 2012 yilga nisbatan o'zgarishi, %
	2012	2013	2014	2015	2016	
Investitsiyalar- jami	11,7	13,0	14,6	15,8	16,6	141,9
shu jumladan: xorijiy investitsiyalar	2,5	3,1	3,1	3,3	3,7	148,0

2-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, 2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga jalb qilingan investitsiyalar va uning tarkibidagi xorijiy

¹⁷ 2015 yilda pul-kredit sotsiasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2016 yilgi muljaalangan asosiy yunalishlari//Bozor, pul va kredit. - Toshkent, 2016. - №1. - 16-bet. shuningdek, 2016 yil ko'rsatkichlari www.stat.uz manbasidan olindi.

investitsiyalar miqdorining o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Buning ustiga, investitsiyalar va xorijiy investitsiyalar miqdori 2016 yilda 2012 yilga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sgan. Mazkur holat mamlakat iqtisodiyoti jadal rivojlanayotganligidan, investitsiya me'yorining yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda faol investitsiya siyosatining amalga oshirilishi tufayli 2016 yilda 49,5 trln.so'm miqdoridagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 9,6%ni tashkil etdi. Jalb etilgan investitsiyalarning 67,2%i ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirildi, shu bilan birga zamonaviy, yuqori texnologiyali uskunalarni xarid qilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning umumiy o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ulushi 34,6%ni tashkil etdi.

Investitsiyalar yuqori o'sish sur'atining asosiy omillari qo'yidagilar hisoblanadi:

- xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish borasidagi chora tadbirlar amalga oshirilishi tufayli, joriy yilda 3,65 mlrd.dollar lik xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, o'sish sur'ati o'tgan yil ga nisbatan 11,3%ni tashkil qildi. Bu mablag'larning 2,5 mlrd.dollardan ortig'i to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalardir. Natijada o'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy sarmoyalar ulushi 20,1%dan 21,9%ga etdi;
- iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan birgalikda moliyalashtiriladigan loyihalarning amalga oshirilishi natijasida, joriy yilda o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 788,4 mln.dollarni tashkil etdi. Ushbu mablag'larning asosiy qismi «Navoiazot» AJda ammiak va karbamid ishlab chiqarishni qurish, azot kislo tasi ishlab chiqarishni tashkil etish, NavoiKonimexMisken temir yo'l liniya sini qurish, «O'zbekiston xavo yo'llari» AJ havo kemalari parkini bir xil lashtirish va yangilashni tashkil etish, Toshkent shahrida mehmonxona majmui ni qurish kabi loyihalarni amalga oshirish doirasida zamonaviy texnologik uskunalar xarid qilish hamda asosiy vositalarni yangilashga yo'naltirildi;
- aholining turmush shartsharoitlari va sifatini yaxshilash hamda tadbirkorlik

faoliyatidan oladigan daromadlari o'sishini rag'batlantirish bo'yicha choratadbirlar amalga oshirilishi tufayli, aholi mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan investitsiyalar 29,4%ga o'sdi. Natijada, kapital qo'yilmalar tarkibida o'zlashtirilgan aholi mablag'lari ulushi o'tgan yilgi 21,2%dan 24,5%gacha ortdi;

- hududiy korxonalar tomonidan investitsiyalarga yuqori talabning shakllantirilishi tufayli, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida hisobot davrida qariyb 28,5 ming loyiha amalga oshirildi. Shundan, sanoat sohasida 6 mingdan ziyod, xususan ishlab chiqarish quvvatini kengaytirishni o'z ichiga olgan 4,5 mingdan ziyod loyiha bo'yicha yangi quvvatlarni ishga tushirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, 194 korxonada yangi faoliyat turlarini yo'lga qo'yish, 336 korxonani modernizatsiya qilish va 988 korxonaning quvvatlarini kengaytirish bo'yicha loyihalar amalga oshirildi. Ulardan, oziqovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 1,7 mingdan ziyod loyiha, qurilish materiallari tarmog'ida 1,9 mingta, to'qimachilik va charpoyabzal mahsulotlari tarmog'ida qariyb 1,3 mingta, mebel va qog'oz tarmog'ida 456 ta, kimyo va neftkimyo mahsulotlari tarmog'ida 391 ta, mashinasozlik va elektrotexnika tarmog'ida 219 ta, farmatsevtikada 97 ta loyiha amalga oshirildi;
- yangi ishlab chiqarish quvvatlari hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma yangi ob'ektlarini qurish hisobiga qurilish-montaj ishlari ko'lamini kengaytirilishi tufayli, kapital qo'yilmalar umumiy hajmida qurilish-montaj ishlari ulushi 2016 yilda 57,6%ni, yangi qurilish uchun yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi esa 61,2%ni tashkil etdi.
- Investitsiyalarning tarmoqlar bo'yicha tarkibida uyjoy qurilishi yuqori ulushga (umumiy investitsiya hajmining 22,3%i) ega. Shuningdek, xom neft va tabiiy gaz qazib olishni (15,7%) o'z ichiga oladigan tog'kon sanoati (17,6%), ishlab chiqarish sanoati (14,0%), tashish va saqlash faoliyat turida (10,5%) o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi ham yuqoridir.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'zlashtirilgan investitsiyalar tuzilmasidagi asosiy ulush kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (15,2%), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish (14,9%), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish (13,7%), oziqovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish (13,2%) va metallurgiya sanoati (10,9%) sohalariga to'g'ri kelmoqda.

Xorijiy investitsiyalarning tarmoq tuzilmasida xom neft va tabiiy gaz qazib olishni (45%) o'z ichiga oladigan tog'kon sanoati 45,4%ni tashkil etdi. Shuningdek, xorijiy sarmoyadorlar tomonidan ishlab chiqarish sanoati (12,9%), tashish va saqlash (12,9%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (12%), axborot va aloqa (7%) va iqtisodiy faoliyatning boshqa bir qator sohalariga investitsiyalar kiritildi.

2016 yilda umumiy qiymati 5,2 mlrd.dollar bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi. Shu jumladan, «Talimar jon IESda 450 MVt quvvatli ikkita bug'gaz turbinasi qurish», «Angren IES da ko'mir kukunidan foydalanishga mo'ljallangan 150 MVt quvvatli energiya bloki qurish», «Jizzax viloyatidagi tsement zavodini kengaytirish», «JM O'zbekiston» aktsiyadorlik jamiyatida «T250» rusumidagi engil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish», «Mis quyuv zavodida yangi quyuv pechi qurish», «Moylisoy koni qurilishi», «Indorama Qo'qon tekstil» xorijiy korxonasida yigiruv korxonasi tashkil etish (IVbosqich)», Andijon viloyati Buloqboshi tumanidagi «Fanteks» mas'uliyati cheklangan jamiyatida yigiruv korxonasi tashkil qilish», «Sirdaryo viloyatidagi «Guliston Med Texnika» qo'shma korxonasida steril shpritslar ishlab chiqarish» va boshqa loyihalar shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha etarlicha salohiyat mavjud bo'lib, u ishlatilmasdan qolmoqda. Aholi jon boshiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish ko'rsatkichi 2016 yilda 121,8 dollarni, jumladan to'g'ridanto'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha 79,4 dollarni tashkil etib, bu ko'rsatkichlar rivojlanayotgan mamlakatlarda o'rtacha 129,0 dollarni, o'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida 160,0 dollarni tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida asosiy investitsiyalar hajmi (neftegaz sohasidagi loyihalar va yirik investitsiya loyihalarini hisobga olmagan holda) Toshkent shahri, Toshkent va Andijon viloyatlariga (61%dan ziyod) to'g'ri kelmoqda. Eng kichik ko'rsatkichlar esa Buxoro (1,4%), Jizzax (1,7%) va Navoiy (1,9%) viloyatlarida kuzatilmoqda. So'nggi ikki hududda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilganiga qaramasdan ularga kiritilgan investitsiyalar pastligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning 10 ta, xususan Qorovulbozor, G'ijduvon, Shofirkon, Boysun, Qiziriq, Baxmal, Zafarobod, Mirishkor, Sardoba va Xa zarasp tumanlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar mavjud emas. Shuningdek, 2017 yil boshiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 185 ta korxona faoliyat ko'rsatmayotgan bo'lib, shundan 183 tasi hududlar bo'ysinuvidagi, jumladan Toshkent shahri (61), Toshkent (59), Samarqand (17), Namangan (11), Buxoro (5) va Jizzax (5) viloyatlariga tegishli korxonalardir.

3-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari¹⁸ (%da)

№	Ko'rsatkichlar	2014	2015	2016
1	Investitsiyalar – jami	109,6	109,6	109,6
2	Markazlashtirilgan investitsiyalar	110,6	114,6	110,5
3	<i>Investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi</i>	20,1	20,8	21,1
4	Markazlashtirilmagan investitsiyalar	109,3	108,8	109,3
5	<i>Investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi</i>	79,9	79,2	78,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014-2016 yillar mobaynida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning o'sish sur'atlari ijobiy bo'lganligini, ya'ni 2014 yilda investitsiyalar 109,6 foizga o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2015 yilda 109,6 foizni, 2016 yilda bu ko'rsatkich 109,6 foizni tashkil qilgan. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan investitsiyalarning o'zaro nisbatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2014 yilda

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

markazlashtirilgan investitsiyalar jami investitsiyaga nisbatan 20,1 foizni tashkil qilgan, markazlashtirilmagan investitsiyalar jami investitsiyaga nisbatan 79,9 foizni tashkil qilgan. 2016 yilda esa markazlashtirilgan investitsiyalar jami investitsiyaga nisbatan 21,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, markazlashtirilmagan investitsiyalar jami investitsiyaga nisbatan 78,9 foizni tashkil qilgan.

4-jadval

Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish dinamikasi¹⁹

№	ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2014	2015	2016
1	Xorijiy investitsiyalar va kreditlar	mlrd. so'm	6818,1	8182,7	10829,2
2	Xorijiy investitsiyalarining umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	20,2	20,1	21,9
3	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	mlrd. so'm	5339,1	6273,1	7569,0
4	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi	%	15,8	15,4	15,3
5	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xorijiy investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi	%	78,3	76,7	69,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014-2016 yillar oralig'ida Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni o'zlashtirish dinamikasi o'sish tendentsiyasiga ega. Jumladan, xorijiy investitsiyalar va kreditlar 2014 yilda 6818,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yil bu ko'rsatkich 10829,2 mlrd. so'mni tashkil qilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning xorijiy investitsiyalar umumiy hajmidagi ulushi esa 2014-2016 yillar oralig'ida 78,3 %dan 69,9%ga kamaygan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha 2014-2016 yillar davomida o'sish kuzatilgan. Jumladan, 2014 yilda bu ko'rsatkich 5339,1 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 7569 mlrd so'mni tashkil qilgan.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan
investitsiyalar²⁰**

№	Ko'rsatkichlar	2014		2015		2016	
		Mrld. so'm	O'sish, %	Mrld. so'm	O'sish, %	Mrld. so'm	O'sish, %
1.	Jami	33715,3	109,6	23664,4	109,4	49476,8	109,6
2.	Markazlashtirilgan investitsiyalar:	6780,8	110,6	4969,0	115,6	10460,9	110,5
3.	byudjet mablag'lari	1577,2	93,6	1232,2	100,2	2210,9	100,4
4.	Davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari	2200,8	109,9	1597,3	104,2	2340,3	84,5
5.	Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari			258,8	105,9	311,3	114,6
6.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari	1403,1	145,4	990,5	120,5	2338,2	111,9
7.	chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostida olingan kreditlar	1479,0	108,9	890,2	94,5	3260,2	152,8
8.	markazlashtirilmagan investitsiyalar:	26934,5	109,3	18695,4	107,8	39015,9	109,3
9.	korxonalar mablag'lari	10401,2	107,1	6690,1	101,1	14246,9	101,3
10.	aholi mablag'lari	7350,5	110,1	5569,8	103,2	12108,1	129,4
11.	to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va kreditlari	5339,1	109,3	3828,1	118,1	7569,0	108,0
12.	tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar	3843,7	113,8	2607,4	125,0	5091,9	95,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2014-2016 yillar mobaynida moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi yillar davomida o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, 2014-2016 yillar davomida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar ulushi 2014 yilda 33715,3 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilda 23664,4 mlrd so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 49476,8 mlrd so'mni tashkil qilgan holda o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgan. Chet el investitsiyalari va hukumat kafolati ostida olingan kreditlar ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2014 yilda 1479,0 mlrd

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

so'mni tashkil qilgan holda 108,9 % o'sishni tashkil qilgan bo'lsa, 2015 yilda 890,2 mlrd so'mni tashkil qilgan holda 94,5 % pasayishni tashkil qilgan bo'lsa, 2016 yilda 3260,2 mlrd so'mni tashkil qilgan holda 152,8 % o'sishni tashkil qilgan.

6-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha chet el investitsiyalarining taqsimlanishi²¹ (%)

№	Iqtisodiyot faoliyat turlari	2016	
		Mrld.so'm	Yakunga nisbatan %da
1.	Jami	49476,8	100,0
2.	qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	123,0	1,1
3.	tog'-kon sanoati	4911,3	45,4
4.	ishlab chiqarish sanoati	1400,1	12,9
5.	elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	1304,9	12,0
6.	suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	239,1	2,2
7.	qurilish	151,0	1,4
8.	ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	181,0	1,7
9.	tashish va saqlash	1393,9	12,9
10.	yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3,4	0,03
11.	axborot va aloqa	754,4	7,0
12.	moliyaviy va sug'urta faoliyati	0,2	0,002
13.	professional, ilmiy va texnik faoliyat	3,3	0,03
14.	ta'lim	103,0	1,0
15.	sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	167,7	1,5
16.	san'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,1	0,001
17.	boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	92,8	0,9

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2016 yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha chet el investitsiyalarining taqsimlanishi 49476,8 mlrd so'mni tashkil

²¹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

qilgan bo'lsa, faoliyat turlari orasida yuqori salmoqqa tog'-kon sanoati ega bo'lgan bo'lib, jamiga nisbatan 45,4 foizni tashkil qilgan. Eng kichik salmoqqa moliyaviy va sug'urta faoliyati, san'at, ko'ngil ochish va dam olish faoliyat turi tashkil qilgan.

7-jadval

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tuzilmasi²² (%)


№	Ko'rsatkichlar	2016 yil	
		mlrd.so'm ekvivalentida	yakunga nisbatan %da
1.	ishlab chiqarish sanoati – jami	1400,1	100,0
2.	ozuq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	331,4	23,7
3.	to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish	324,8	23,2
4.	teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	20,6	1,5
5.	yog'och va po'kak buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	3,8	0,3
6.	yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	0,0
7.	koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,0
8.	kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	96,6	6,9
9.	asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	45,1	3,2
10.	rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	162,9	11,6
11.	boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	208,6	14,9
12.	metallurgiya sanoati	37,6	2,7
13.	tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	100,7	7,2
14.	kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,0
15.	elektr uskunalari ishlab chiqarish	8,9	0,6
16.	avtotransport vositalari va boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish	31,1	2,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish sanoatiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar tuzilmasi 2016 yilda ishlab chiqarish sanoatida jami 1400,1 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lib, ishlab chiqarish sanoati jamiga nisbatan yuqori salmoqni oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish - 331,4 mlrd so'mni, to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish - 324,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan.

²² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

2.2. Erkin iqtisodiy zonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holati (“Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi misolida)

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi va qo‘shimcha sanoat sohalarini ishga tushirish, sanoat obyektlarini ilg‘or va zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlashda xorijiy investitsiyalarning o‘rni muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan muhim ustuvor yo‘nalish asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiya siyosatini olib borishdan iborat”²³. Muvaffaqiyatli investitsion siyosat olib borgan davlatlar (Singapur, Tayvan, Gonkong, Janubiy Koreya, Xitoy) tajribasi shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirishda erkin iqtisodiy hududlar (EIH(6-rasm)), erkin sanoat zonalar (ESZ), logistika markazlari va offshor hududlar muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida 3000 dan ortiq erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritib, ularda 67 milliondan ortiq aholi ish bilan ta‘minlangan.



6-rasm. EIHlarning dunyo mintaqalari bo‘yicha taqsimoti²⁴

²³ Каримов И.А. Асосий вазифамиз - ватанимиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – б. 65.

²⁴ Special Economic Zones: Global Experience and Best Practices. 2015

O'zbekistonda istiqlool yillarida mavjud investitsion potensialdan (boy tabiiy resurslar, arzon va malakali ishchi kuchi, to'yinmagan bozor) unumli foydalangan holda samarali investitsion siyosat olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimizda yaratilgan ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish borasida ham ishga solinmagan ulkan imkoniyatlar mavjud. Biz ishlab chiqarishni yangilash va modernizatsiya qilish uchun katta mablag' sarflaymiz, ko'p miqdordagi xorijiy investitsiyalarni jalb etamiz"²⁵. Bu borada, birinchi navbatda, xorijiy investorlarning erkin faoliyat olib borishlari uchun ko'plab imtiyozlar va preferensiyalarni kafolatlovchi qonunchilik bazasi yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi va "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni (2012 yil 12 aprel, PF-4434-sonli) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 205-sonli (2003 yil 2 may) qarorlarini misol qilib keltirish mumkin.

Eng asosiysi, O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Navoiy erkin iqtisodiy-industrial, Jizzax maxsus industrial zonalar, Angren logistika markazlarining tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratdi. Ushbu tashkil etilgan maxsus zonalar xorijiy investorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi bilan birga mamlakatimizda yangi va qo'shimcha sanoat tarmoqlarini joriy qilish, yangi ish o'rinlari yaratish,

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.

raqobatbardosh eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda o‘z faoliyatini olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni asosida tashkil etilgan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi Navoiy viloyatining Karmana tumanidagi 500 gektarli yer uchastkasida joylashgan.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona bir qator ijobiy omillarga ko‘ra, Karmana tumanida joylashtirilgan. Xususan, tumanning geografik jihatdan qulayligini Osiyo va Yevropa qit‘alarini bog‘lab turuvchi havo, temiryo‘l va avtomobil yo‘llarining mavjudligi, xalqaro transport koridorining mavjudligi va ushbu koridor orqali Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg‘oniston, Eron, Yaqin va O‘rta Sharq, Osiyo Tinch okeani mintaqasi, Rossiya va Boltiqbo‘yi mamlakatlari portlariga chiqish imkoniyatiga egaligi kabi omillar bilan izohlash mumkin.²⁶

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 27 yanvardagi 21-son Qarori asosida tasdiqlangan “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq, ushbu zonada maxsus huquqiy rejim, shu jumladan soliq, valyuta va bojxona rejimlari, O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan fuqarolarning kirishi, bo‘lishi va chiqib ketishining, shuningdek mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsatnoma olishining soddalashtirilgan tartibi amal qiladi. Zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnikani, texnologik liniyalari va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarning keng doirasini ishlab chiqarish “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatining asosiy yo‘nalishi hisoblanib, faoliyat ko‘rsatish muddati 30 (o‘ttiz) yilni tashkil etib, ushbu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkin.

²⁶ Сборник статей слушателей, профессорско-преподавательского состава Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан . Круглый стол: «Вопросы модернизации системы государственного управления», г.Ташкент 1 ноября 2013 года, 134-бет

Ushbu zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga bir qator imtiyozlar belgilangan. Xususan, kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar miqdoriga qarab, tadbirkorlik subyektlari bir qancha muddatga yer, mulk, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari va boshqa qator majburiy to'lovlardan ozod etilgan. Ushbu imtiyozlar kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining quyidagi miqdorlari uchun belgilangan muddatlarga amal qiladi:

- 3,0 mln.yevrodan –10,0 mln.yevrogacha –7 yilga;

- 10,0 mln.yevrodan – 30,0 mln.yevrogacha – 10 yilga. Keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50% miqdorida belgilanadi;

- 30,0 mln.yevrodan ortiq bo'lganda – 15 yilga. Keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50% miqdorida belgilanadi.

2015 yil 1 oktyabr holatiga Navoiy viloyatida ro'yxatdan o'tgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar soni 55 tani tashkil etadi. Shundan, hududlar kesimida Navoiy shahrida 18 ta, Zarafshon shahrida 4 ta, Karmana tumanida 23 ta, shundan "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida 18 ta, Konimex, Navbaxor va Qiziltepa tumanlarida 2 tadan, Nurota, Tomdi, Uchquduq va Xatirchi tumanlarida 1 tadan xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar mavjud.²⁷


2010 yilning avgust oyidan boshlab o'z faoliyatini boshlagan "Navoiy" xalqaro aeroportida tashkil etilgan xalqaro yuk terminali "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi loyihasining muvaffaqiyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon andozalari talablariga javob beradigan texnologiyalaridan foydalanilayotganligi, har qanday ob-havo sharoitida ham 1000 tonnadan ortiq yuklarni saqlash va qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'lib, samarali tarzda eksport, import va tranzit yuklarga xizmat ko'rsata oladi. Janubiy Koreyaning "Korean Air Co" havo yo'llari hamkorligida tashkil etilgan xalqaro logistika markazining

²⁷ <http://www.navoi.uz> sayti ma'lumotlari

rivojlantirish yoʻnalishlari 3 bosqichga moʻljallangan boʻlib, 1-bosqichda (2009–2010 y.) qulay infratuzilmani barpo etish, 2-bosqichda (2011–2013 y.) faoliyat yoʻnalishini kengaytirish, 3-bosqichda (2014–2018 y.) ushbu logistika markazining toʻlaqonli faoliyatini taʼminlashdan iboratdir. 2010 yilda logistika markazi tomonidan 11 ta yoʻnalish boʻyicha, jumladan, Bangkok, Bombey, Bryussel, Dakka, Dehli, Dubay, Seul, Istambul, Milan, Frankfurt, SHanxay shaharlariga yuk va yoʻlovchi tashish qatnovlari yoʻlga qoʻyildi. 2011 yildan esa 7 ta yoʻnalish (Olma-ota, Boku, Bishkek, Tehron, Xanoy, CHendu, Saragosa) boʻyicha doimiy qatnovlar yoʻlga qoʻyildi.

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi yuridik kuchga kirgandan boshlab hozirgi davrgacha 111, 7 mln. AQSH dollariga teng investitsion loyihalarni amalga oshirilishi belgilangan boʻlib, 2013 yil 1 avgust holati boʻyicha ushbu investitsiyalarning 88,7 mln. AQSH dollari oʻzlashtirildi.²⁸

“Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasiga jalb etilgan toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar xisobiga oʻz mahsulotini eksportga yoʻnaltiruvchi korxonalar faoliyatining samarasi sababli Navoiy viloyatining tashqi savdo aylanmasi tobora kengayib bormoqda.



7-rasm. Navoiy viloyatining 2015 yildagi tashqi savdo aylanmasining qitʼalar boʻyicha tarkibi

²⁸ Сборник статей слушателей, профессорско-преподавательского состава Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан . Круглый стол: «Вопросы модернизации системы государственного управления», г.Ташкент 1 ноября 2013 года, 134-бет

Navoiy viloyatining 2015 yildagi tashqi savdo aylanmasining qit'alar bo'yicha tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, erkin iqtisodiy hududda keying yillarda eksport hajmi ortib borgan (7-rasm).²⁹ Xususan, Navoiy viloyati va erkin iqtisodiy hudud joylashgan Karmana tumanining iqtisodiy salohiyatining yildan-yilga yuksalib borishini ko'rish mumkin. Jumladan, 2000 yildan 2013 yilga qadar Navoiy viloyati miqèsida mahsulotlar va xizmatlar eksporti hajmi 1716,7 foizga oshib, 1,8 ming AQSH dollaridan 30,9 mln. AQSH dollariga etganligi aniqlandi.

Bundan tashqari, "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasida "UZHONGKONG" xorijiy korxonasida televizor, telefon va planshetlar, noutbuk ishlab chiqarish loyihasi amalga oshirilishi rejalashtirilib, qurilish ishlari olib borilmoqda. 2015 yil oyligida korxona tomonidan 1056,4 ming dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi. Ushbu korxonaga Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 14 maydagi 333-F sonli farmoyishi asosida o'z ehtiyoji uchun chet davlatdan olib kelinadigan qurilish materiallariga import bojidan imtiyoz berildi.³⁰

2 bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning hozirgi holati va ahamiyati tadqiq etilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, investitsiya har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning tayanch omili hisoblanadi. Tadqiq etilgan 2012-2017 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o'sib borayotgani aniqlandi. Xususan, joriy, 2017 yilda 199 ta investitsiya loyihasi doirasida 4,5 milliard dollar hajmidagi xorijiy investitsiyalar jalb etilishi rejalashtirilganligi buning dalilidir;

Ikkinchidan, istiqlol yillarida O'zbekiston iqtisodiyotiga invevstitsiyalarni keng ko'lamda jalb kilish imkonini beradigan mustahkam me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilganligi bilan bir qatorda, samarali investitsion sièsat olib borilganligini alohida qayd etish o'rinlidir;

²⁹ <http://www.navoi.uz> sayti ma'lumotlari

³⁰ <http://www.navoi.uz> sayti malumotlari

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 apreldagi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, Navoiy erkin iqtisodiy-industrial va Jizzax maxsus industrial zonalar, Angren logistika markazining tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yuzaga keltirganligi, aynan mazkur yo'nalishda boy tajriba orttirilganligi, mamlakatimiz xududlarida kelgusida erkin zonalar soni ortib borishi va samarali faoliyat yutishiga zamin yaratishini e'tirof etish maqsadga muvofiqdir;

To'rtinchidan, zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnikani, texnologik liniyalari va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng doirada ishlab chiqarish "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida qayd etilib, uning faoliyat ko'rsatish muddati 30 (o'ttiz) yilni tashkil etishi belgilab qo'yilganligi hamda ushbu muddat keyinchalik uzaytirilishi mumkinligi istiqbolda investitsiyalar, xususan, xorijiy investitsiyalarni keng ko'lamda ishonchli tarzda jalb qilishning kafolati sifatida mamlakatimiz iqtisodiyotining real sektorini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash uchun qulay shart-sharoit yaratib berganligini alohida ta'kidlash lozim.

3 BOB. XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI SAMARALI TASHKIL QILISH MASALALARI

3.1. Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlash masalalari

Xorijiy investitsiyalarning muvaffaqiyatli jalb qilinishi uch guruh omillariga bog'liq bo'ladi. Birinchidan, investitsiya quvvatini mavjudligi. Uni tabiiy, mehnat zahiralari, shuningdek ishlab chiqarish, iste'mol, moliyaviy, innovatsiya, institutsional va infratuzilmaviy quvvatlar tashkil qiladi. Ikkinchidan, mavjud investitsiya sharoitlari muhim ahamiyatga egadir. Bularga: umumiy iqtisodiy, bozor me'yoriy-huquqiy, axborot bilan ta'minlash, ekologik, ijtimoiy, etnografik va ijtimoiy madaniy sharoitlar kiradi. Uchinchidan, investitsiya tavakkalchiligi (riski) omillaridir. Ular xorijiy investorlarning investitsiya quvvati va investitsiya sharoitlarining qulay afzalliklaridan foydalanish bo'yicha vazifalariga qarama-qarshi turadi.

Barcha guruhlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun etarli darajada jalb qiluvchi bo'lmagan investitsiya sharoitlari, hatto yuqori quvvatli investitsiya loyihlarini amalga oshirish imkoniyatlarini ham pasaytirib yuboradi.

Investitsiya tavakkalchiligi (riski) - o'tish iqtisodida bo'lgan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha sharoitlarni shakllantirayotgan davlatlar uchun riskning muhim turlaridan biridir. Shuning uchun ham tavakkalchilikni, uning manbalarini va uning oldini olish usullarini aniqlash rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hayotiy vazifa bo'lib hisoblanadi.

Tavakkalchilikni ma'lum bir qarorni qabul qilish natijasida zaxiralarni yo'qotish imkoniyati, daromadlarni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar zarurati sifatida belgilash mumkin. Tavakkalchilik - bu bashorat qilinayotgan loyihani amalga oshirishda haqiqiy sharoitlardan ozgina chekinilgan daromadlarni ololmaslik yoki zararlarni paydo bo'lib qolishi ehtimolidir.

Bozor iqtisodiy sharoitlarida mamlakatda mavjud bo'lgan tavakkalchilik omillarini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Sababi investitsiya muhitiga birinchi navbatda ana shu omilning ta'siri kuchli bo'ladi. Ta'sir ko'rsatish

xususiyati va paydo bo'lish manbalariga qarab, omillarning quyidagi guruhlarini ajratib ko'rsatish mumkin: siyosiy, makroiqtisodiy, mikroiktisodiy va infratuzilmaviy.

Siyosiy omillarga davlat tuzumining barqarorligi; rivojlangan mamlakatlarda bo'lgani kabi investor huquqlarini samarali himoya qilishni ta'minlaydigan rivojlangan qonunchilik asosining mavjudligi; investitsiyalarni uzoq muddatga jalb qilish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan, oldindan bashorat qilib bo'ladigan ishonchli-iqtisodiy siyosatning mavjudligi; iqtisodiy samarasi va izchil tartibga solishni amalga oshiruvchi davlat organlarining mavjudligi; mahalliy va xorijiy investorlar uchun axborot va ma'lumotlarning ochiqqligi hamda o'tkazilayotgan siyosatning oshkoraligi.

Makroiqtisodiy omillar iqtisodning umumiy holatini, uning o'sish sur'atlarini belgilaydi va mamlakat iqtisodi stiklining qaysi fazasidaligini aniqlash hamda yaqin yillar ichidan bo'ladigan o'zgarishlarni bashorat qilish imkonini beradi. Omillarning bu guruh quyidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi: Inflyatsiya darajasi, ishsizlik, aholi jon boshiga o'rtacha daromad, milliy valyutaning barqarorligi, davlat byudjeti va to'lov balansining holati, qayta moliyalash stavkasi, daromadlarning har xil turlariga soliq solish darajasi. Bu erda iqtisodning rivojlanishida tizimlarning proporstiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni; yalpi ichki mahsulotda sanoat, qishloq xo'jaligi va iqtisodiy boshqa tarmoqlarining nisbiy ulushi, shuningdek, bu ko'satkichlar o'zgarishlarining dinamikasi.

Kapitalizatsiyanish yoki uni alohida segmentlarining yalpi ichki mahsulot o'lchashga nisbati sifatidagi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadigan moliya bozori rivojlanishining umumiy xususiyatlarini, moliya sektorining, jumladan, tijorat banklari brokerlik kompaniyalari, investitsiya banklari va birjalarning rivojlanish darajasi va sur'atlarini, iqtisoddagi investitsiyalarning umumiy hajmida xorijiy investitsiyalarning ulushini va ularning nisbatlarini ham makroiqtisodiy omillarga kiritish mumkin.

Moliyaviy ahvol, menejmentning rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish va marketing siyosati, milliy iqtisodiyotga yirik korxonalarni rivojlantirish istiqbollari

makroiqtisodiy omillarga kiradi. Tabiiyki, bu omillar faqat milliy bozor segmenti uchun sezilarli ta'sir ko'rsatuvchilardir. Aktivlar va sarmoyaning daromadligiga, shuningdek, "sifat" ko'rsatkichlari kabi omillar shu guruhni xususiyatlovchi ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotga jalb qilinganligiga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilmasining rivojlanish darajasi va yo'nalishlarini, ya'ni uning unsurlarini va shu bozorda qabul qilingan operastiyalarni amalga oshirish jarayonida ular o'rtasidagi munosabat tizimini o'z ichiga oladi.

O'zbekistondagi mavjud investitsiya muhiti, fikrimizcha, investorlarning investitsiya risklarini baholash asosida chet el investitsiyalari kirib kelishiga qulayliklar yaratish kerak. Chet ellik investorlar qabul qiluvchi mamlakatdagi investitsiya muhitini, uning xavfsizligi, siyosiy risklar darajasi va ularning sug'urtalanishi, investitsiyalash maqsadlarga muvofiqligi, iqtisodiyotning boshqalarga qaraganda qulayligi nuqtai nazardan baholaydilar.

Mamlakatga xos risk darajasi (qarzlarning masalasi, import va eksport balansi, hukumatning barqarorligi va boshqalar), mahalliy sharoitning qo'shni mamlakatga nisbatan ustun tomonlari muhim o'rinda turadi. Investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari (import xom ashyoga bojxona bojlarini bekor qilish, korporativ soliqni qisman yoki butunlay bekor qilish, soliqlar bo'yicha imtiyozlar), eksport sanoati rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan zonalarining bo'lishi va boshqalar alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda respublikada muayyan darajada chet el kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda chet el kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy normalar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Chet el kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; chet el kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlari berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliylashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari; konstessiyalar berish; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aksiyadorlik

kapitalida hissani cheklash; majburiy eksport kvotasini joriy qilish; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operastiyalarini listenziyalash va boshqalar.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizastiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Jamg'arish va investitsiyalashni rag'batlantirish uchun, bizning nazariyamizda, investitsiya bo'yicha soliq kreditlarining turli shakllaridan kengroq foydalanishni yo'lga qo'yishi zarur.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada chet el investitsiyalari ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi.

Iqtisodiyotning globallasuvi va bir-biriga kirib borish, chet el investitsiyalarini milliy iqtisodiyotga jalb qilish hayotiy zaruratga aylanib borayotgan hozirgi sharoitlarda, investitsiya kapitalini mamlakatimizga eksport qiladigan mamlakatlarning amaldagi qonunlarini, investitsiya muhitini hisobga olgan holda takomillashtirish talab etiladi.

Investitsiya muhitini investitsiyalarning risklarni baholash asosida chet el investitsiyalari oqimining qulaylashtirishiga xizmat ko'rsatishi talab qilinadi. Qabul qiluvchi mamlakatning investitsiya muhiti chet ellik investorlar tomonidan baholanishida, birinchi navbatda, uning xavfsizligi, investitsiyalash maqsadlariga muvofiqligi, mamlakatga xos risklar darajasi, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlariga e'tibor qaratiladi. Konstessiya sharoitlari, eksport sanoati rayonlari, erkin savdo zonalari, bojxona bojlari amal qilmaydigan zonalarining bo'lishi va boshqalar bevosita chet el investitsiyalari uchun muhim hisoblanadi. Qo'shma korxonalar tashkil qilish uchun o'z mabalag'larini

qo'yadigan xorijiy investorlar uchun imtiyozlar yangi ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqaruvchilar qo'shma korxonalarda yangi texnologiyalarga ustuvorliklarini nazarda tutish kerak.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda chet ellik sheriklar harakatlari motivastiyasini anglash, chet el investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini bir xil qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Xullas, milliy investitsiya muhiti bevosita chet el investitsiyalari oqimi uchun qulay va maqbul bo'lishi kerak. Buning uchun jami investitsiya risklari, xavfsizlik, daromadlilik, chet el investitsiyalari likvidligi, investitsiyalash maqsadlari inobatga olinishi zarur va bular asosida baholanishi shart. Bu borada qulay mahalliy sharoitlar, investitsiyalarni rag'batlantirish tadbirlari, konstessiyalar tashkil etish, eksport sanoati rayonlari, bojxona bojlari amal qilmaydigan va erkin savdo zonalarini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunda o'z mablag'lari hisobidan istiqbolli tarmoqlar va hududlarni investitsiyalash uchun o'rta va uzoq muddatli kreditlar ajratishda ulushi yuqori bo'lgan banklarga soliq imtiyozlari berish nazarda tutilishi kerak. O'zini oqlagan mikrokreditlar sonini ko'paytirish va bu ishni keng ko'lamda amalga oshirish lozim. Ichki kredit manbalarini safarbar etish chora-tadbirlari bilan birgalikda xorijiy sarmoyalarni rag'batlantirishga xizmat qiladigan qulay muhit yaratish masalasi biz uchun o'ta muhim strategik ahamiyatga ega.

Shuningdek, hozirda muhokama qilinishi lozim bo'lgan mamlakatimizga yangi sarmoyalar oqimi kelishi yo'lidagi to'siq va cheklashlarni olib tashlash bo'yicha echimini kutayotgan dolzarb muammolar ham mavjud. Ulardan biri kadrlar tayyorlash milliy dasturidir. Bu dasturning mamlakatimiz kelajagi uchun

katta ahamiyatga ega.

Butun dunyoda davlat mablag'lari asosan yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi ishlarga sarflanadi. Bozor iqtisodiyotining bozor mexanizmi sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish byudjet hisobida qoladi.

Bugungi kunda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining daromadlarini soliqqa tortishda bir qator imtiyozlar berilgan bo'lsada, bizning fikrimizcha, birinchidan, bu soliq imtiyozlarining muddati, hajmi, qo'llanish shart-sharoiti aniq ko'rsatilgan bo'lishi, ikkinchidan, bu engilliklar xorijiy investorlarga yaxshi tanish va tushunarli bo'lib kamida besh-o'n yilga belgilanishi, uchinchidan, soliq imtiyozlari o'zgarmas va qat'iy bo'lishi lozim. Shundagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin.

Soliq imtiyozlarini berishda jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. AQShda korxonalar zarar ko'rib ishlayotgan davriga soliq to'lashdan ozod qilinadi. Bu tajribani O'zbekistonda ham eng kerakli sohalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qo'llash maqsadga muvofiq. Buning uchun qat'iy soliq nazoratini o'rnatish zarur.

O'zbekiston so'mining erkin almashadigan valyutalarga nisbatan bo'lgan kursining pastligini hisobga olib, xorijiy investorlarning korxonalar sof daromadini taqsimlashda oladigan ulushini soliqqa tortishni vaqtinchalik bekor qilish, ijobiy o'zgarishlarga olib kelardi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida amortizastiya korxonalarning investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi bosh omillardan hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan

davlatlarda amortizatsiya normasi, soliqlar stavkasini tasdiqlash bilan bir vaqtda aniqlanadi. Bunday holatda etakchi tarmoqlarga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish maqsadida yuqori amortizatsiya normalari belgilanadi. Bu tajribani O'zbekistonda qo'llash muximdir, chunki mashina va uskunalarga o'rtacha amortizatsiya normasi bizda 15% ni tashkil etsa, AQShda bu 20-33% ni, Angliyada 25% ni tashkil etadi.

O'zbekiston iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb qilishda bevosita xorijiy investitsiyalarning ulushini oshirishga alohida e'tiborni qaratish lozim. Tarmoqlar va hududlarda tuzilmaviy qayta qurish vazifasini hal etishda bevosita xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga, shuningdek, O'zbekiston Davlat investitsiya dasturini amalga oshira borib erishish mumkin, chunki bunday bevosita investitsiyalarning aksariyat qismi faqat davlat kafolati ostida kirib kelayotganligini hammamiz yaxshi bilamiz. Shu sababli, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- ayrim tarmoqlar va mintaqalarda (jumladan, erkin iqtisodiy zonalar) xorijiy investorlar uchun real amal qilishi uchun imtiyozlar tizimini yaratish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, yuqori turuvchi organlar va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida mulk va vakolatni aniq chegaralab qo'yish;
- barqaror iqtisodiy tashqi savdo qonunchiligini, shu jumladan, erkin iqtisodiy zonalar va konstessiyalar bo'yicha me'yoriy bazani yaratish;
- soliqlarni kamaytirish va soliq tuzilmasini soddalashtirish;
- xorijiy investitsiyalarni sug'urtalashning samarali mexanizmini yaratish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini monopoliyadan chiqarish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;
- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini induvidual loyihalar bo'yicha xususiyalashtirish;
- birja bozorlarida va boshqa bozorlarda akstionerlik jamiyatlari aksiyalari paketlarining bir qismini xorijiy investorlarga sotish;
- mahsulot ishlab chiqaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarni xorijiy

investorlarga sotish.

Ushbu tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni faol jalb etilishiga va investitsiya muhitining barqarorligini ta'minlashga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

3.2 O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar samaradorligini ta'minlash yo'llari

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish masalasi, eng avvalo, uning qonuniy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga bog'liq bo'ladi.

Jahon bozorida ro'y berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va bozor islohotlarini chuqurlashtirishni ob'ektiv shart qilib qo'yayotganligini ta'kidlash lozim. SHu nuqtai nazardan mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyati O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyoti rivoji uchun o'ta dolzarb bo'lgan mamlakatimiz Prezidentining 2005 yil 11 apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Farmoni aynan xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirishda, iqtisodiyotni erkinlashtirish borasida qo'yilgan yana bir muhim qadam bo'ldi.

Shuningdek, ishlab chiqarishni muntazam modernizastiyalash, texnik-texnologik jihatdan qayta jihozlash, uni yuqori sifatli, raqobatbardosh, eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish imkonini beradigan ilg'or zamonaviy uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan samarali rag'batlantirish tizimini yaratish maqsadidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishlab chiqarishni modernizastiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi³¹. Mazkur Farmonning qabul qilinishishi xorijiy investitsiyalar asosida iqtisodiyot tarmoqlarini jadal modernizastiya qilishni kuchaytirish yo'lidagi navbatdagi amaliy qadam bo'ldi. Farmonda quyidagi

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishlab chiqarishni modernizastiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. "Xalq so'zi". 2007. 15 mart, 52-son, 1-b.

imtiyozlar ko'zda tutilgan:

- xo'jilik yurituvchi sub'ektlarga uch yil mobaynida ishlab chiqarishni modernizastiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga, ushbu maqsadlar uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing ob'ekti qiymatini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida, tegishli hisobot davri uchun hisoblangan amortizastiya mablag'laridan foydalanish sharti bilan, foydadan olinadigan soliq bazasini kamaytirish huquqi berilgan;

- ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig'idan ozod qilingan;

- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladigan ishlab chiqarish mikrofirmalari va kichik korxonalari uchun besh yil davomida yagona soliq to'lovi to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi texnologik jihozlar qiymatiga teng, ammo soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda kamaytirgan holda soliq imtiyozlari joriy etilgan;

- texnologik jihozlarni olib kirishda qo'llaniladigan imtiyozlar, agar texnologik jihozlarni etkazib berish bo'yicha shartnoma shartlarida ko'zda tutilgan bo'lsa, butlovchi va ehtiyot qismlarga nisbatan ham tatbiq etilgan.

Ma'lumki, dunyo mamlakatlari orasida chet el investitsiyalarini o'z milliy iqtisodiyotiga jalb etishning raqobat shakli yildan-yilga kuchayib bormoqda. Shu bois, chet ellik investorlarga yaratilgan qulaylik qaysi davlatda ustun darajada bo'lsa, boshqacha qilib aytganda, foyda olish ehtimoli kattaroq bo'lsa, tabiiyki, ularning aynan o'sha davlat iqtisodiyotiga o'z sarmoyasini kiritishga qiziqishi ortmoqda. Bu esa, bozor iqtisodiyotining nisbiy samaradorlik qonuniga mos keluvchi echim hisoblanadi, ya'ni qaerda samara (foyda) olish imkoniyati nisbatan yuqori bo'lsa, tadbirkorlar o'sha erdagi bozorga ko'proq intiladi. SHu nuqtai nazardan qaraganda, bugun O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlar ichida eng yuqori investitsiya muhiti yaratgan mamlakatlardan biri bo'lib qoldi. Bu, shubhasiz, iqtisodiyotimizga to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar oqimini yanada ko'paytiradi.

Iqtisodiyotga safarbar qilingan investitsiyalarning samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichdan yana biri ICOR (incremental capital-output ratio) bo'lib, u mamlakatdagi real sektorga yo'naltirilgan investitsiyalar samaradorligini aniqlashda yordam beradi. Bu koeffitsient asosiy kapitalga qo'yilgan mablag'lar, ya'ni YAIM dagi investitsiyalar salmog'ining, keyingi yildagi YAIM ning qo'shimcha o'sish sur'atiga nisbatini bildiradi, ya'ni:

$$ICOR = I / \Delta YAIM$$

Bu erda, I – investitsiya o'sish darajasi (YAIM dagi salmog'i);

$\Delta YAIM$ - yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sish darajasi.

Shu bilan birga oxirgi yillikda Respublikada yalpi ichki mahsulotning qo'shimcha o'sish sur'atlari asta – sekin ko'tarilib bordi. Natijada ICOR ko'rsatkichi yillar davomida pasayib borib, 2016 yilda 2,1ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich qanchalik kichik bo'lsa, shunchalik ahamiyatli (ijobiy) hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan Farmonning yana bir muhim jihati - bu uning xususiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilganligidir. Ma'lumki, chet el ishbilarmon doiralari, yirik mulk egalari O'zbekistonga qiziqishi, qolaversa, avvaldan O'zbekistonda o'z mulki va sarmoyasiga ega bo'lgan ko'plab chet el tadbirkorlari o'z bizneslarini yanada kengaytirish niyatida ekanliklari hech kimga sir emas. Shularni hisobga olganda, Farmonda aynan xususiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishga qaratilgan shartlar bu uzoq strategik ahamiyatga molik to'xtamdir.

Xususiylashtirilgan korxonalarning investitsiya jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlarni jalb etish uchun qo'shimcha rag'batlantirishlarni tashkil qilish maqsadida nazorat aktsiya paketlarini sotib olmasada, korxonalarga salmoqli hajmlarda investitsiyalar kiritayotgan investorlarga professional boshqaruvchi kompaniyalarga beriladigan davlat aktsiyalar ulushini boshqarish huquqini tanlovlarsiz berish ko'zda tutilgan. Farmonning yana bir asosiy xususiyati – bu investitsiya kiritish shartlari va joylarining aniq belgilab qo'yilganligidir. Ortiqcha ishchi kuchi bo'lmagan mintaqalar - Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm viloyatlarida, Navoiy, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarining qishloq aholi punktlarida yangi korxonalarni joylashtirish ko'zda tutilgan. Bunday holat xususiy saromyaga ega bo'lgan chet el tadbirkorlar faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadiga ega.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga faol jalb etishga manfaatdor har qanday davlat o'zining investitsiya siyosatini takomillashtirib boradi. Bu siyosat xorijiy investitsiyalarni jalb etishning o'ziga xos yo'nalishini, shuningdek ularni jalb etishni rag'batlantirish tizimini aniqlab beradi va investitsiya faoliyatining huquqiy tartibini belgilaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda va jahon tajribasida xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishda turlicha tartib va usullarning bo'lishi qayd etilgan. Masalan: milliy tartib; adolatli va teng huquqlilik tartibi; qulay muhit barpo etish tartibi; transparent (shaffoflik) tartibi va boshqalar. SHu bois jahon amaliyotida qo'llanilayotgan bu kabi tartib va usullarni qiyosiy tahlil etish bizningcha maqsadga muvofiqdir.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida amaliyotda sinalgan investitsiya siyosatining samaradorligini baholashning umumlashtiruvchi mezonlari va huquqiy tartiblarining turlicha variantlaridan shakllangan ob'ektiv qonunlar asosida iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasi to'plangan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham yetarlicha himoyalash imkoniyatini beradi. Bu erda xorijiy investitsiyalar ham milliy ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza chet el investorlarining to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi engillik va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

G'arb mamlakatlarida hukumat kapital qo'yilmalarni faollashtirish strategiyasida ko'proq xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirishning egri usulidan

(soliq, amortizatsiya, moliya-kredit siyosati) foydalanishni afzal ko'rishadi. So'nggi ikki o'n yillikda g'arbda investitsiya qarorlarini qabul qilishda va amalga oshirishda mahalliy hududlarning javobgarligi va roli oshib bormoqda. Qator mamlakatlarda (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya) mahalliy organlar xorijiy investitsiyalarni va investorlar faoliyatini muvofiqlashtirishda yetarlicha mustaqillikka egadir. Bu erda investitsiya bozorini muvofiqlashtirishning asosiy vositasi sifatida daromad solig'i (foyda solig'i) qo'llaniladi. Bu soliq stavkasining o'zgarishi firma va kompaniyalarning investitsiya faoliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Umuman so'nggi yillar mobaynida rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati keng kompyuterlashtirish, resurslarni tejash, yangi zamonaviy texnologiya, shuningdek mahalliy xokimiyatni roli va javobgarligini oshirish asosidagi yangi boshqaruv tizimi asosidagi iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltirilgan. Mahalliy xokimiyatlarga investitsiya dasturlarini boshqarishda, ekologik siyosatni yurgizishda va hududiy rejalashtirishda asosiy rol belgilangan. Jahon tajribasi shundan guvoh beradiki, investitsiya dasturi va loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishi uning ishtirokchilari o'rtasida optimal proporsiyani ta'minlashga bog'liqdir.

Davlat ham bu jarayonda muhim rolni o'ynaydi, uning funkstiyasiga asosan quyidagilarni kiritish mumkin: huquqiy muvofiqlashtirishni ta'minlash, munistipial tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlarni rasmiylashtirish; moddiy va moliyaviy resurslarni birlashtirish uchun sharoit yaratish, soliq engilliklarini va boshqa moliyaviy imtiyozlarni belgilash; loyihani hayotga tatbiq etishda va uning noxush oqibatlarini (ekologiya buzilishi, hududiy er uchastkasining buzilishi va boshqalar) uchun mahalliy organlarning javobgarligini aniqlash; loyihani amalga oshirish uchun aholini, ijtimoiy tashkilotlarni jalb etish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali loyihani hayotga tatbiq etishning maqsadga muvofiqligini keng targ'ib etish.

AQSH, Braziliya, Xitoy, Meksika, Hindiston kabi yirik mamlakatlarda mahalliy organlarning zimmasiga juda ulkan vazifalar yuklatilgan. Ayniqsa,

AQSH va Germaniyada alohida hudud va shtatlar yuqori darajadagi mustaqillikka va yirik miqdordagi moliyaviy resurslarga ega.

Rivojlangan mamlakatlarda hududiy investitsiya siyosatini olib borish o'ta muhim masalalardan sanaladi. Davlat doimiy ravishda har bir hududning iqtisodiy imkoniyati, rivojlanish darajasini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatini olib boradi. Amerika Qo'shma Shtatlarida federal darajada maxsus xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlari ishlab chiqilmagan. Xorijiy investitsiyalar uchun tavsiya etiladigan barcha imtiyoz va engilliklar shtatlar darajasida ishlab chiqilgan. Bu esa o'z navbatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha shtatlar o'rtasida erkin raqobatni vujudga keltiradi. Har bir 50 shtat milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha o'zining maxsus ishlab chiqqan dasturiga ega.

Har bir shtat aniq maqsadga qaratilgan xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha bir necha xil dasturlarni ishlab chiqadi. Ular quyidagi maqsadlarda bo'lishi mumkin: ish joylarini tashkil etish; shtatni va alohida shtat hududlarining iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish; zamonaviy ilg'or texnologiyani joriy etish va fan texnika taraqqiyoti yutuqlariga erishish va h.k.

AQSHda shtatlar miqyosida xorijiy investorlar uchun beriladigan imtiyozlar - bu soliq imtiyozlari, moliyaviy yordam, infratuzilmani rivojlantirishda hamkorlik, kadrlar tayyorlash, ijara haqi va elektr to'lovlarini kamaytirish, past foizlarda kredit shaklida bevosita moliyaviy resurslar ajratish kabilardan iborat.

Har bir shtatning mustaqil investitsiya siyosatini olib borishi, erkin raqobatning vujudga kelishiga, shu hududda ishlab chiqarishning, tadbirkorlikning rivojlanishiga zamin yaratadi.

So'nggi yillarda qator mamlakatlarda hududni iqtisodiy rivojlantirish korporatsiyalarini tashkil etish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu korporatsiyalar mazkur hududda joylashgan firmalarning ishtirokida maxsus fondlarni shakllantiradi. Bu fond mablag'lari hududda infratuzilmani rivojlantirishga, yangi qurilishlarga yo'naltiriladi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, chet el investorlariga turli engillik va

imtiyozlarni joriy etish bo'yicha Xitoy davlati tajribasi ham ahamiyatlidir. Xitoy hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli muvofiqlashtirib kelmoqda.

Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalarni yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa bir vaqtda investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. CHet el investitsiyalarini jalb etish uchun "soliq kanikuli" va engilliklari, import ta'riflari bo'yicha engilliklari kabi turlicha rag'batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Ayniqsa ko'pgina erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalarga nisbatan bunday engillik va imtiyozlar ko'proq ishlatiladi.

Hozirda Xitoy hukumati mamlakatning ichki rayonlariga ko'plab, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun, ularga uzoq muddatga soliq to'lashdan ozod etish, foydasini har qanday to'siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb qilishni rag'batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatsiz hayotga tatbiq etishlari mumkin.

Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi davlatlarining qonunlariga ko'p jihatdan o'xshash holda ishlab chiqilgan. SHuning bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, turlicha davlatlarning qonunlarida chet el investorlari faoliyatiga cheklanmalar ham belgilangan. Deyarli barcha davlatlarda chet el kapitali kiritilishi mumkin bo'lmagan tarmoqlar mavjuddir. Qator davlatlarda chet el investitsiyalari uchun ayrim tarmoqlar to'liq yopiqdir.

Xorijiy investorlarning faoliyati bo'yicha cheklovlarni muvofiqlashtirishda mahalliy organlarning ishtiroki ham salmoqlidir. Qator davlatlarda mahalliy hududdagi iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, xorijiy investorlarning faoliyatida turlicha cheklovlarni belgilaydi. Masalan AQSHda ayrim shtatlarda foydali qazilmalarga chet el kapitalini jalb etish man etilgan bo'lsa, ayrim shtatlarda er uchastkasini sotib olishda cheklovlar belgilangan. Biroq, Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, ko'pgina davlatlarda hududiy investitsiya siyosatidagi moliyaviy-

iqtisodiy imtiyozlarning va engilliklarning berilishi hududlarning iqtisodiy rivojlanishlariga zamin yaratmoqdalar.

Respublikamizda ham viloyatlarning, tumanlarning investitsion faoliyatdagi faolligini va mustaqilligini oshirish hududlarga chet el investitsiyalarini jalb etishda bir muhim mezon bo'lishi mumkin.

Jahon amaliyotida investorlarning manfaatlarini himoya qilish va kafolatini ta'minlashning quyidagi usullaridan foydalaniladi: milliy qonuniyatlarning chet el investorlariga nisbatan mos me'yorlarini qabul qilish; ko'p tomonlama shartnomalarning me'yorlarini muvofiqlashtirish; kapital qo'yilmalarni o'zaro himoyalash va rag'batlantirish bo'yicha davlatlararo ikki tomonlama shartnomalarni muvofiqlashtirish; aniq olingan investitsiya loyihalari bo'yicha davlatlararo va xorijiy investorlar bilan kelishuvnomalarni muvofiqlashtirish. Respublikamizda bu qayd qilingan usullarning barchasidan foydalanilsada, lekin bizning fikrimizcha yetarli darajada emas.

Yuqorida qayd etganimizdek, bizning fikrimizcha, respublikamiz investitsiya faoliyatida mahalliy hokimiyatlarning mustaqilligini va rolini oshirish va maxsus investitsiyalarni rag'batlantirishning mahalliy dasturlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishni kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek hududlarda investitsiyalarning manbasi sifatida munistipial va korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish va ulardan oladigan daromadlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash investitsiya oqimini ko'paytirishga olib kelishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini xorijiy investorlar ishtirokida investitsiyalashni tashkil etish quyidagi yo'nalishda bo'lgani maqsadga muvofiqdir:

- xorijiy investorning loyihani realizatsiya qilishdagi mas'uliyatini kuchaytirish, ularning loyihani boshidan oxirigacha milliy investorlarning ulushidan kam bo'lmagan miqdorda kapitali bilan samarali ishtirok etishini ta'minlash va bunday mas'uliyat va majburiyatlar me'yoriy hujjatlarda, jumladan shartnomada qat'iy qilib belgilanishi va amal qilishi kerak;

- O'zbekiston sharoitida ilg'or va zamonaviy uskuna va texnologiya ehtiyojni hisobga olgan holda xorijiy investorlarni uz texnologiyasi va uskunalarini

o'zlashtirish tajribalarini milliy kadrlarga urgatish zimmasini yuklash va ularning bunday majburiyatlarni bajarishga mafaatdorligini oshirish zarur;

- investorlar manfaatlarining bir biriga moe kelmasligi, ya'ni xorijiy investorlarning maqsadi yuqori darajada foyda olish, uzbek investorlari esa foyda olish bilan birga ilg'or texnologiya va ish tajribasiga ega bo'lish ekanligini hisobga olgan holda loyihani realizastiya qilmasdanoq shartnomada tomonlarning ulushi qanday valyutada, qanday o'lchov birligida baholanishi, foydani taqsimlash tartibi aniq va qat'iy belgilanishi maqsadga muvofiqdir;

3 bob bo'yicha xulosalar

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi o'z navbatida mamlakatimizdagi investitsion jozibadorlikka bog'liq. Mamlakatning investitsion jozibadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sabablarni bartaraf etish uchun quyidagi muammolarni hal etish lozim: tez-tez o'zgarib turadigan qonunlar va qonun osti hujjatlari, soliq tizimi; investitsiya va kreditlarga oid tavakkalchilikning yuqori darajadaligi; investitsiyalarni muhofaza qilish, mahsulotlarni ajratish mexanizmining barqarorlik darajasi; bank tizimidagi ayrim nuqsonlarning mavjudligi (ichki bozorlarda pul resurslarining tanqisligi, ular tuzilmasi muddatining qisqaligi, to'lov va hisob-kitoblarning yo'lga qo'yilmaganligi, bank xodimlarining investitsiya va kreditlarga oid tavakkalchiligini baholash tajribasining etishmasligi kabilar.); infratuzilma darajasining pastligi (audit, sugurta, konsalting, baholash, huquqiy madad, telekommunikastiyalar, transport va mehmonxona xizmati); fond bozorining sust rivojlanganligi, depozit xizmatining nomukammalligi, bozorga tegishli ma'lumotlarning etishmasligi, fond qimmatli buyumlarining past likvidiligi; korxonalarda menejmentning yo'lga qo'yilmaganligi; erishilgan bitimlarning bajarmaslikka yo'l qo'yilishi, investitsiya loyihalarini kelishish amaliyotining murakkabligi, hisobga olish tizimining moliya hisobi va hisoboti standartlarining xalqaro tizimiga muvofiq emasligi va h.k.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nilishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, chet el investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat. So'nggi yillarda mamlakatimizda hududni iqtisodiy rivojlantirish korporatsiyalarini tashkil etish tajribasi keng qo'llanilmoqda. Bu korporatsiyalar mazkur hududda joylashgan firmalarning ishtirokida maxsus fondlarni shakllantiradi. Bu fond mablag'lari hududda infratuzilmani rivojlantirishga, yangi qurilishlarga yo'naltiriladi.

XULOSA

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omillaridan biridir. Bizga ma'lumki, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilish, ishlab chiqarishni zamonaviy, ilg'or uskuna, texnologiya bilan kurollantirish «nou-xou» va malakali ishchi kuchiga ega bo'lish, ish tajribasini urganish, shuningdek, maxalliy bozorni kamyob sifatli maxsulotlar bilan ta'minlash, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish imkoniyatlarini beradi.

O'zbekistonda mavjud sharoitlarni xisobga oladigan bo'lsak, albatta, xorij sarmoyasining kiritilishi uzining ijobiyligini kursatadi. Chunki, mamlakatni xom-ashyo bazasidan rivojlangan industrial davlatga aylantirish yirik miqdordagi moliyaviy mabdalarni talab etadi. Bu esa, respublikaning ichki moliyaviy imkoniyati bilan amalga oshiriladigan faoliyat emasdir.

Respublikaning iqtisodiy mustakilligini to'la ta'minlashni bu tarkibdagi tashqi iqtisodiy faoliyat doirasida amalga oshirish juda murakkab ish xisoblanadi. Respublikaning mavjud bor imkoniyatlari chet elga xom-ashyo emas, balki tayyor maxsulotlarni eksport qilishga zamin yaratadi. Shuning uchun xam bugungi kunda kayta ishlovchi sanoatni barpo etish va rivojlantirish uta muximdir. Bu, albatta, uz navbatida, yirik miqdordagi investitsiyalarni talab etadi. Shu sababli keyingi yillarda iqtisodiyotni kompleks tarzda tarkiban qayta qurishga qaratilgan muhim investitsiya dasturlarini amalga oshirish davom etmoqda. Mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilish, respublikaning ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan mintaqalarida yangi ish joylarini yaratish dasturlarini amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, shuningdek xorijiy investorlar uchun ishonchli huquqiy himoya va kafolatlarni ta'minlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash hamda zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni tashkil etishni tezlashtirish borasida faol investitsiya siyosati yuritishga alohida e'tibor

qaratildi.

Hukumatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kapital qo'yilmalarning keng jalb qilinishini ta'minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; yurtimizga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo'jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko'maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan qulay sharoitlar yaratish siyosatini izchil olib borish; eng muhim ustuvor yo'nalishlarga mablag'larni yo'naltirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish – bu nafaqat xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda yangi, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ayni paytda zamonaviy texnika, dastgoh va uskunalar, texnologiya va nou-xaularni joriy etish, shu asosda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning yuksak sifatini ta'minlash imkonini beradi. Eng muhimi, chetdan imtiyozli sarmoyalarni olib kelish natijasida mamlakatimizda raqobatbardosh kuchli iqtisodiyotni barpo etish va jahon bozorida O'zbekistonning munosib o'rin egallashi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Buning natijasida O'zbekiston hozirgi kunda rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida yekchi o'rinlarda bormoqda.

Bizning fikrimizcha, yaqin vaqtlar ichida xorijiy investitsiyaga asoslangan korxonalarni normativ bazasi, ro'yxatga olish, ishonchli kafolatlari va soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qiladigan quyidagi chora–tadbirlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Xususan:

- xorijiy investitsiyali korxonalar uchun o'ta sodda, lekin shu bilan bir qatorda, juda ishonchli va mazmunli soliqqa tortish mexanizmini joriy etish;
- egri soliqlarning stavkalarini jahonda o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lgan stavkalarda belgilash, o'z navbatida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni to'g'ri soliqlarni to'lash ko'lamini kengaytiradi;

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliq mexanizmini tutgan o'rni bo'yicha amalga oshirilgan tahlillar natijalariga ko'ra quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni keltirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- iqtisodiy zonada faoliyat yurituvchi norezidentlar uchun soliq imtiyozlari bilan bir qatorda, moliyaviy va ma'muriy imtiyozlarni qo'llash mexanizmini joriy etish lozim;

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida innovatsion faoliyatning tutgan o'rnini muhimligini inobatga olgan holda, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish bilan bog'liq faoliyatni rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi;

- jalb qilinayotgan investitsiyalarni qishloq xo'jaligiga yo'naltirishda qo'shimcha imtiyozlar joriy etish. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda investitsion muhitni takomillashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish uchun qulay makroiqtisodiy siyosatni shakllantirish bo'yicha ish olib borish muhim hisoblanadi. Buning uchun inflyatsiya darajasini past darajada ushlab turish, inflatsiyaning investitsion loyihalar qiymatini o'sishiga ta'sirini kamaytirish, xorijiy investitsiyalar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xojiy investitsiyalar miqdorini keskin ko'paytirishga ko'proq e'tibor qaratishimiz zarur. Investitsiyalarni real ishlab chiqarish sohasiga, birinchi galda xom-ashyoni qayta ishlovchi tarmoqlarga jalb etish lozim.

Shuningdek, mamlakatimizda tarixiy obidalar va yodgorliklar ko'pligini inobatga olgan holda turizm sohasini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsadga muvofiq bo'lardi.

Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlantirish borasida ham qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Rivojlangan mamlakatlarda portfel investitsiyalarga e'tibor juda katta hisoblanadi va xorijiy investitsiyalar tarkibida ham portfel investitsiyalar katta ulushni tashkil etadi. Chunki, xorijiy investitsiyalar rivojlanish garovi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: «Adolat», 1992.
2. O'zbekistonn Respublikasining «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi Qonuni// Xalq so'zi. 1998 yil 30 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni//Xalq so'zi. 1998 yil 24 dekabr. (2014 yil 9 dekabrda yangi tahririda qabul qilingan).
4. O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi Qonuni// Xalq so'zi. 1998 yil 30 aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining “Erkin iqtisodiy hududlar to'g'risida”gi Qonuni, 1996 yil 25 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 15-son, 167-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni . 2017-yil 31-mart.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

9. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995 yil.

10. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009.

11. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va barqarorlik to'g'risida. – T.: O'zbekiston, 2005.

12. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yilning asosiy yakunlari va 2013 yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvchi” NMIU. - 2013.

13. I.A.Karimov. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlantirish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo'li bo'ladi./ 2013-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi// T.: “O'zbekiston”, 2014-64-b

14. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 b.

15. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 104 b.

16. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

17. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

3. Darslik va o'quv adabiyotlari

18. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007. - 102 b.

19. N. X. Xaydarov, S.F. Ubaydullaeva “Xorijiy investitsiyalarni muvofiqlashtirish masalalari”. Toshkent - 2011y. 24-25 betlar.

20. Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. – T.: «Moliya», 2010. –b. 139-147.

21. Vahobov A. va boshqalar. Halqaro moliya munosabatlari: Darslik/Mual: A.Vahobov, N.Jumaev, U.Burxonov.-T: “Sharq”, 2003. 277-bet.

22. Djons Ernest «Delovie finansi», M., 2006 y., 416 b.

23. Dodiev F. «Investitsiya faoliyatini moliyaviy ragbatlantirish», iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 1998 y., 10 b.

24. Jo'raev A.S, Xo'jamqulov D.Yu., Mamatov B. «Investitsiya loyihalari tahlili» Toshkent «Sharq»2007-52 b.

25. Золотогоров В.Г. «Инвестиционное проектирование», Минск, 2008 й., 12 б.

26. Игошин Н.В. «Инвестиции: организация управления и финансирвоание», М.: ЮНИТИ, 2002 й. 81 б.

27. Karimov N.G'., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. - TDIU, 2011-B. 31.

28. Maxmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. - 86-b.

29. Решаев П.Л. Прямые иностранные инвестиций как фактор экономического успеха и технологического лидерства//Девятнадцатые Международные Плехановские чтения (4-7 апреля 2006 г.): - М.: Изд-во Рос.экон. акад. 2006. 98 с

30. Самархўжаев Б.Б. Инвестиции в Республике Узбекистан. – Т.:, 2003,стр 16.

31. Тумусов Ф.С. «Инвестиционный потенциал региона». М.: «Экономика», 2009 й., 13 б.

32. Uzoqov A., Nosirov E., Sultanov M, Saidov R. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi (o'quv qo'llanma). T.: "Iqtisod-moliya", 2006. 380 b.

33. G'ozibekov D.G. «Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari» iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 2002 y., 24 b.

34. Xodiev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Mamlakatni jadal isloh etish va modernizatsiya qilish – milliy taraqqiyotimizning mantiqiy bosqichi / Ilmiy-ommabop risola.- T.: TDIU, 2008, 57 6.

35. Xaydarov N. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari», iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2003 y., 14-15 b.

4. Davriy nashrlar

36. Almatova D.S.Hududlar investitsiya salohiyatini oshirish. Jamiyat va boshqaruv, -№3,2011. 66-67-b.

37. Burxanov A. Sanoat korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash omillari. / Bozor, pul va kredit. 2008. №6. – B. 33-36.

38. Механизм инвестиций: международный опыт в контексте Узбекистана // Экономическое обозрение. – Ташкент, 2007ю - №7. – С.17.

39. G'ozibekov D.G'. Bevosita xorijiy investitsiyalar. "Iqtisod va hisobot" 2008, №4, 27-31 betlar.

40. Imomov H.H. O'zbekiston mintaqalaridagi investitsion muhitning jozibadorlik holatini tavsiflovchi omillar / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2 noyabr, 2011 y.

41. Mamatov B.S., Sharifxodjaeva K.U. Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar – iqtisodiyot taraqqiyotining muhim omili // Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda soliq siyosatini yanada takomillashtirish yo'llari: Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Toshkent, 2006. – B. 336-338.

42. Nodirxonov U. Mamlakat reytingiga ko'ra xorijiy investitsiyalar. //Bozor, pul va kredit. 2000. 8-son, 47-b.

43. Nosirov E.I. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash va investitsiyalash ob'ektini tanlashning zamonaviy usullari. Iqtisodiyot va ta'lim. 2003., 4-son, 49-57 betlar.

44. Yusupov A. Xorijiy investitsiyalar – korxonalar iqtisodiy taraqqiyot omili. Bozor, pul va kredit, -№11, 2004. 27-b.

45. UNCTAD, World Investment Report 2016. Investor nationality: policy challenges. New York and Geneva, 2016. p. 50.

5. Internet saytlari

46. <http://www.gov.uz> – (O'zbekiston Respublikasining hukumat portalini).

47. <http://www.press-service.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati).

48. <http://www.stat.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy veb sayti).

49. <http://www.lex.uz> – (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi) .

50. <http://www.mf.uz> – (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy veb sayti).